

ТАЪЛИМ

13. Бюджет РУз с официального сайта Министерства финансов РУз. URL: https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=580
14. Статистические данные. Госкомстата РУз URL: [https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection_\(Дата обращения 30.04.2021\)](https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection_(Дата обращения 30.04.2021)).
15. Касымова Д.М. Молодёжь на рынке труда Узбекистана. Журнал: Экономика образования, Март-апрель. № 2(75). Москва 2013. С. 88-89.
16. Наука и инновационная деятельность в Узбекистане 2015-2019. Госкомстата РУз. Ташкент 2020. С.94.
17. Beard, D., & Surendran, K. (2008). Integrating Soft Skills Assessment through University, College, and Programmatic Efforts at an AACSB Accredited Institution. *Journal of Information Systems Education*, 19(2), 229–241.
18. Новый кроссплатформенный проект РБК, который рассказывает о тенденциях в бизнесе. 27.08.2020. URL: [https://trends.rbc.ru/trends/innovation/5ee87fee9a794772d1f904bf_\(Дата обращения 04.05.2021\)](https://trends.rbc.ru/trends/innovation/5ee87fee9a794772d1f904bf_(Дата обращения 04.05.2021)).
19. Lazarus, A. (2013). Soften up: the importance of soft skills for job success. *Physician Executive*. 39 (5), 40-45.
20. Ybarra, O., Kross, E., & Sanchez-Burks, J. (2014). The "big idea" that is yet to be: Toward a more motivated, contextual, and dynamic model of emotional intelligence. *Academy of Management Perspectives*, 28, 93-107. doi:10.5465/amp.2012.0106
21. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, p. 185-211.
22. BBC news. URL: [https://www.bbc.com/russian/features-40716336_\(Дата обращения 04.05.2021\)](https://www.bbc.com/russian/features-40716336_(Дата обращения 04.05.2021)).
23. Sternberg, R. J. (1986). Critical thinking: Its nature, measurement, and improvement National Institute of Education. Retrieved from <http://eric.ed.gov/PDFS/ED272882.pdf>. P. 3.

**To'ychiyeva Odina Nabievna -
Farg'ona politexnika instituti,
Katta o'qituvchi, "Iqisodiyot" kafedrasi**

ZAMONAVIY BIZNES - TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Maqolada kichik biznesning xususiyatlari, iqtisodiyotni rivojlanirishda kichik biznes va tadbirkorlikning roli va ahamiyati, kishilarda tadbirkorlik sohasidagi bilimlarni shaklantirishda biznes ta'lmini o'rni va uni rivojlanirishning zarurligi, iqtisodiy fanlarni o'qitishga qo'yiladigan talablar yoritilgan bo'lib, biznes ta'lim tizimining mazmun hamda shaklini takomillashtirish va ularni bugungi kun talabiga moslashtirishni bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, biznes ta'lim, iqtisodiy bilim, raqobat.

**Tuychieva Одина Набиевна -
Ферганский политехнический институт,
Старший преподаватель кафедры «Экономика»**

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО БИЗНЕС - ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье описаны цели и роль малого бизнеса и предпринимательства в развитии экономики, необходимость совершенствования бизнес-образования в формировании знаний в области предпринимательства, требования к преподаванию экономических дисциплин в целях повышения эффективности бизнес-образования, разработаны предложения по совершенствованию содержания и формы современного бизнес-образования с целью их адаптации к современным требованиям.

Ключевые слова: бизнес, предпринимательство, бизнес-образование, экономические знания, конкуренция.

**Tuychieva Odina Nabievna -
Fergana Polytechnic Institute,
Senior lecturer of the Department of Economics**

ISSUES OF DEVELOPMENT OF MODERN BUSINESS - EDUCATION

Annotation: The article describes the purpose and role of small business and entrepreneurship in the development of the economy, the need for the improvement of business education in the formation of knowledge in the field of entrepreneurship, the requirements for the teaching of economic disciplines in order to enhance business education, developed proposals to improve the content and form of modern business education in order to adapt them to current requirements.

Key words: business, entrepreneurship, business education, economic knowledge, competition.

Kirish. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Tadbirkorlikni keng rivojlanirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbar etish muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlanirishning aniq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvat-

lashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini tashkil etishda kamchiliklar kuzatilayotganligi ham qo'yilgan masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahili. Iqtisodiy bilimdonlikni os hirishning zarurligi va iqtisodiy bilimlarning jamiyat rivojidagi ahamiyatini yoritish masalalari juda ko'p olimlar tomonidan tadqiq etilib kelingan. Xususan, A.Avloniy, A.Fitrat kabi ma'rifatparvar olimlarning o'z davrida o'zbek millatining iqtisodiy savodxonligini oshirish bilan yoshlarni tijorat va savdo ishlariga yo'naltirish lozimligi borasidagi fikrlari bugun ham o'z dolzarbli bilan ahamiyatga molikdir. Shuningdek, iqtisodiy bilmlarning zarurligi haqidagi masalalar yetuk olimlar Q. Muftaydinov, Q.Yo'doshevning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, olimlarning "Iqtisodiyot va iqtisodiyot ilmi bir-biriga uzviy bog'liq bulgan tushunchalardir. Zero shu narsa tarixiy haqiqatki, qayerda iqtisodiyot rivoj topgan bo'lsa, o'sha yerda iqtisod ilmi ham kamol topadi, chunonchi iqtisod ilmining rivoji iqtisodiyot taraqqiyotiga turtki beradi" [5] degan fikrlari diqqatga sazovordir. Iqtisodiy bilimlarning zaruriyligi va ulardan jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanishga qaratilgan masalalar olimlarimiz Sh.Shodmonov, U.G'ofurov asarlarida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, boshqa iqtisodchi olimlar I.Ismakov, G.Davlyatovalar tomonidan iqtisodiy bilimlarning o'zlashtirilishi jamiyat rivojlanirishning asosi ekanligi, ya'ni "zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish qoidalarini va shakllarini hamda usullarini mukammal o'zlashtirgan, har qanday iqtisodiy jarayonlarga to'g'ri baho beradigan, iqtisodiyot oldida turgan muammolar yechimini hal qila oladigan, mutaxassisgina mamlakat iqtisodiyotini rivojlanirishni ta'minlaydi" deb ta'kidlangan [2].

Asosiy qism. Bozor iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri, shubhasiz, uning ijtimoiy ishlab chiqarishni demokratlashuvini, aholi bandligini ta'minlash, biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochish bo'lib hisoblanadi.

"Biznes" atamasi ingliz tilidagi "business" so'zidan olingan bo'lib, "ish" ma'nosini anglatadi. Biznes bilan shug'ullanuvchi kishilarni "biznesmen", ya'ni – "ishbilarmalar" deb yuritiladi.

Agar biznesning asosiy sharti biron bir foydali ish qilish bo'lsa, biznesning o'zi bozor iqtisodiyotining asoslaridan biridir.

Insonni biznesmen bo'lishiga majbur qilib bo'lmaydi, faqatgina uning o'z g'oya va kashfiyotlarini ishga solish uchun sharoit yaratish mumkin xolos. Lekin biznes bilan shug'ullanishdan avval quyidagi uchta muhim tamoyillar (qoidalar)ga rioya qilish zarur:

1. Biznes qonunlari va qoidalarini yaxshilish.
2. Zaruriy boshlang'ich kapitalga ega bo'lish.

3. Majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish.

Shuni yodda tutish kerakki, biznes har doim muvaffaqiyatli va nafla emas, balki ma'lum tavakkalchilik (risk) hamdir. Biznes bu – keskin raqobat, kurashtva va o'z o'rniiga ega bo'lish ishtiyoqi, katta sport va doimiy trening hamda ijodda bo'lganidek, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyish qilishdir.

Biznes va tadbirkorlik sohasi ko'pincha "kichik iqtisodiyot" deb ham yuritiladi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanirish O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'naliishlaridan biridir. Bandlik muammosini hal etish, bozorning mo'l-ko'l-ligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanirishda o'ziga xos quyidagi xususiyatlar e'tiborga olinmoqda:

- bozordagi talabga tez moslasha borib, sifatlari mahsulot ishlab chiqarishi;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondira olishi;
- dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi;
- yangi ish o'rinalarini barpo etish va bandlik muammosini hal etishga ko'maklashish imkoniyati;
- biznes egasi (tadbirkorlik)ning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalar.

Kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata oladi. U iste'mol talabining o'zgarishlariga tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyatini va ixtisosini tez hamda nisbatan asoratsiz o'zgartira oladi. Bundan tashqari kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni tezlashtiradi [8].

Alohida shaxs uchun esa kichik biznes bilan shug'ullanish band bo'lish va daromad olishga, ishi va shaxsiy hayotini yaxshiroq birlashtirishga, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanirishni rag'batlanirish bo'yicha ko'rilgan choratadbirlar natijasida 2021-yilning yanvar-mart oylarida yalpi ichki mahsulotdagi kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi 45,0 %ni, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida 22,2 %ni tashkil etdi[9].

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 16,1 birlikni tashkil qildi. 2021 yilning dastlabki uch oyi davomida 26,8 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi, Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0 foizga ko'p

demakdir. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 9093 ta, sanoatda 5602 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4540 ta, qurilishda 1847 ta, axborot va aloqada 700 ta tashkil etilgan[7].

Shuningdek, hozirda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida quyidagi aniq ishlar amalga oshirilmoxda:

- ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilinmoqda;

- kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda;

- kichik tadbirkorlik sub'ektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;

- tadbirkorlarni davlat ro'yhatiga olish va hisobga qo'yishning yengillashtirilgan tartibi joriy etildi;

- statistika va soliq hisobotining qisqartirilgan shakli kiritildi;

- kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirilmoqda;

- ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish va boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etildi.

- "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida o'z biznesini biznes muhitini yanada yaxshilash borasidagi ishlar faol davom ettirilmoqda;

- yangi qabul qilingan Soliq kodeksiga muvofiq soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi, soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish bo'yicha yengillashtirilgan mexanizmlar kiritildi;

- tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismi qaytarish tartibi joriy etildi;

- Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qilindi.

Kichik biznes sohasida raqobat muhitini shakllanishi va rivojlanishi, tadbirkorlarda biznes yuritish bo'yicha malaka va tushunchalarni rivojlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa iqtisodiy bilimlarni o'rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiy bilimlarni o'rganish zaruriyatni nafaqat raqobat muxitini shakllanganligi va biznesni yuritish uchun balki iqtisodiy resurslarning cheklanganligi tufayli ham muhimdir[10]. Yer osti va usti boyliklarining kamayib, yer yuzida aholi sonining ko'payib borayotganligi, kishilarning yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan taqchil resurslardan samarali va unumli foydalanish juda ham ahamiyatlari bo'lib qolmoqda. O'z-o'zidan savol

tug'iladi, taqchil resurslarni nima hisobidan to'ldirish mumkin? Mayjudlaridan qanday qilib samarali foydalanish mumkin? Bu kabi savollarga javob berish uchun ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirish zaruviyati kelib chiqadi.

Hozirgi zamonda iqtisodiyotni bir so'z bilan bilimlar iqtisodiyoti deb ham atash mumkin. 20-asrning yetuk mutaffakkirlaridan biri A.Fitrat ham iqtisodiy bilimlarning zarurligi, yoshlarni iqtisod ilmini egallashga, ularni tijorat va savdo ishlari ga o'qitish lozimligi haqidagi ilg'or fikrlarni bergen. Xususan, u vatandoshlariga murojaat qilib "Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ishiga o'qitingiz, chunki begonalar (xorijiy savdogarlar) tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz" [3] deb ta'kidlagan edi.

Yuqoridagi iqtisodiy fikrlardan ko'rinish turidiki, 20-asrning yetakchi olimlari ham vatanimiz ozodligi va mustaqilligining moddiy va ma'naviy asoslarini yaratish, ana shu asosda millatning o'z mustaqilligi uchun kurashini ilmiy darajaga ko'tarish maqsadlarini ko'zlaganlar.

Ayniqsa, hozirgi davrda iqtisodiy bilimlar kishilarda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish zarurligi bilan ham muhimdir. Chunki jamiyat taraqqiyoti tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlanishga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy bilimlar kishilarda tadbirkorlik, omilkorlik fazilatlarini shakllantiradi. Ulardagi yalqovlik, loqaydlik kabi illatlarni siqib chiqaradi. Iqtisodiy bilimlarning rivojlanishi kishilarda mulkni tasarruf qilish va undan samarali foydalanish bo'yicha yangidan-yangi g'oyalarni hamda takliflarni shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Natijada, xususiylashtirish hamda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mayda va qo'shma korxonalar tashkil etish asosida sohibkorlikka keng yo'l ochiladi. Bozor iqtisodiyotining ko'p mulkchilikka yo'naltirilganligi mulkdorlarni bozorga mahsulot va xizmatlarni olib chiqishlari erkin tarzda amalga oshirishini nazarda tutadigan bo'lsak yuqoridagi muammo yanada jiddiyashadi.

Shuning uchun ushbu jarayonda ishtirok etuvchilarni zamonaviy biznes yuritish tartib qoidalari va malakalari bilan qurollantirish zaruriyati kelib chiqadi. Bu esa ta'lim tizimining mazmun va shaklini takomillashtirish va ularni bugungi kun talabiga moslashtirishni taqozo etadi.

2019-yilning oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 5847-sonli Farmoni bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiysi"da ham ishlab chiqarish, fan va ta'lim uyg'unligini ta'minlashni ko'zda tutilgan. Xususan, zamonaviy sharoitda biznesni yuritishni ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qayd etilgan[1].

ТАЪЛИМ

Xulosa. Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiy bilimlarni berishni chuqurlashtirish masalasi eng muhim, dolzARB masalalardan biriga aylandi. Chunki rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga yetish uchun biz iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlovchi shaxslar, kadrlarga ega bo'lismiz zarur. Iqtisod ilmidan boxabar bo'lgan kishilarga har doim qiladigan sarf-xarajatlarining samarasini oldindan hisob-kitob qiladilar, tadbirkorlik asosida ish yuritadilar, biznesni to'g'ri tanlaydilar, qachon, qaerda, nima va qancha ishlab chiqarishni yaxshi biladilar. Pirovard natijada kelajak taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va oila farovonligi ta'minlanadi.

Yuqorida gilarni umumlashtirgan holda izoxlash mumkinki, ta'lim yo'naliшlarining o'quv rejalariga biznesni tashkil etish va yuritish bo'yicha fanlarning kiritilishi talabalarda biror-bir faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga sabab bo'ladi. Xususan, "Iqtisodiyot" va "BX va A", "Menejment" ta'lim yo'naliшlarining o'quv rejalariga "Marketing", "Biznesni rejalaшtirish", "Kichik biznes va tadbirkorlik" fanlarning kiritilishi talabalarda biznesni tashkil etish va yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yaratmoqda. Shuningdek, noiqtisodiy ta'lim yo'naliшlariga "Xorijiy investitsiyalar", "Soliq va soliqqa tortish" kabi fanlarning kiritilishi esa talabalarda iqtisodiyot to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish va ularni qo'llash imkoniyatini shakllantirmoqda. Talabalarda eng zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun ta'lim sifatini oshirish maqsadida dars mashg'ulotlarini takomillashtirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, amaliy dars mashg'ulotlarida ishbilarmonlar o'yinlaridan, keys-stadi, biznes vaziyat tahlili kabilardan foydalanish talabalarda biznesni yuritish bo'yicha ko'nikmalarini tez shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy biznes-ta'limni rivojlanish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

- o'quv jarayoniga yetakchi mutaxassislarini ma'ruza o'qish va seminarlar tashkil etish uchun jalb etish;

- ingliz tilini chuqur o'rganish, uni xalqaro biznes sohasining asosiy muloqot tili ekanligiga e'tibor qaratish;

- talabalarga mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlarni muntazam yetkazish;

- kichik biznesni yuritishda muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlarning ish faoliyatini o'rganish, tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy yondoshishga qaratilgan seminarlarni tashkil etish.

- ajodolarimizning tadbirkorlik va ishblarmonlikka oid tarixiy manbalarni o'rganish va ularni ommalashtirish;

- o'quv jarayonini 4+2 shaklida, ya'ni 4 kun nazariy va 2 kun amaliyotda shug'ullanishini yo'lga qo'yish orqali biznesga oid bilimlarini rivotantirish;

- biznesni yuritishga oid va investitsion qarorlarni qabul qilish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashqlar to'plamidan foydalanishga ustuvorlik berish;

- biznes fanlarni o'qitishda nazariy mashg'ułotlar bilan amaliy mashg'ułotlar nisbatini 30:70 nisbatga keltirish;

- hukumat darajasida amaliyotga oid ma'lumotlar bazasini aynan o'quv yurtlari uchun yaratish;

- biznes fanlari o'qituvchilarining malaka darajasi, pedagogik mahoratini baholash asosida ularni sertifikatsiyalash jarayonini tashkil etish ma'suliyatini institut ilmiy kengashiga berish;

- biznes fan o'qituvchilarini ishga qabul qilishda ularning amaliyot tajribasini asosiy mezon sifatida belgilanishini yo'lga qo'yish;

- biznes fan o'qituvchilarini yetakchi biznes tuzilmalarida stajirovkasini tashkil etish.

Shuningdek, biznesni yuritishga oid viktorinalarni tashkil etilishi ham talabalarda tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha ko'nikmalarini kengayishiga olib kelmoqda. Tadbirkorlik ko'laming kengayishi esa mamlakat iqtisodiyotining mustahkmalanishiga, xalqning turmush darajasining oshishini ta'minlaydi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi olyi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiysi". 08.10.2019 y
2. Ismanov I., Davlyatova G "Biznesni rejalaшtirish" Darslik. – F.: Classik,2020,-437 6.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1- jild. - T.: Ma'naviyat, 2000. -168 6.
4. Shodmonov Sh., G'afurov U. "Iqtisodiyot nazariyasi" Darslik. – T.: TDIU, 2009,- 529 b.
5. Yo'doshev Q., Muftaydinov Q., Mamatqulov Sh. "Iqtisodiyot asoslari", Oquv qo'llanma. T.: Sharq, 2002,-272b
6. Tuychieva, O. N. (2020). On the problem of training competitive personnel for the digital economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 701-707. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-127>
7. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. O'zbekiston Respublikasi Davlat solq qo'mitasi axborot –tahliliy byuleteni (2021-yilyanvar-mart)
8. Sevarakhon Abdullaeva. [Improving of organizational mechanism of leasing](https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1669&context=namdu). // Scientific Bulletin of Namangan State University – 2019. Doi <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1669&context=namdu>
9. Abdullaeva Sevarakhon KHasanovna / [Issues of Ensuring Economic Stability in the Textile Industries](https://media.neliti.com/media/publications/335549-issues-of-ensuring-economic-stability-in-de5aaaf9.pdf). // JournalNX – 2020. VOLUME 6, ISSUE 12 Doi <https://media.neliti.com/media/publications/335549-issues-of-ensuring-economic-stability-in-de5aaaf9.pdf>
10. GM Davlyatova, CX Abdullaeva. (2019) [Systemic principles and regularities of commercial enterprise as a socio-economic system](https://cyberleninka.ru/article/n/18235040) // Journal of Economy and Business, (6-1). p.95. Doi <https://dx.doi.org/10.24411/2411-0450-2019-10827>. <https://cyberleninka.ru/article/n/18235040>